

TALABALAR DUNYOQARASHIDA MILLIY VA AHLOQIY QADRIYATLARNI AHAMIYATI

Ma'rufjonova Husnigul

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi

101- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadriyatlarning kelib chiqish shakllari va jihatlari haqida aytib o'tilgan. Hamda milliy va diniy qadriyatlarning inson tarbiyasida muhim o 'rin egallashi asoslab berilgan. Milliy qadriyatlarni tiklash va hayotga tadbiq etishni yanada takomillashtirish haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, milliy qadriyatlар, diniy qadriyatlар, qadriyat shakllari, halollik, oilaga muhabbatni, Vatanga muhabbatni shakllantirish.

Abstract: This article talks about the forms and aspects of the origin of values. It is also justified that national and religious values occupy an important place in human education. There are conclusions about the restoration of national values and further improvement of the development of their application to life.

Key words: Value, national values, religious values, forms of value, honesty, formation of love for the family, love for the Motherland.

Bu so'z arabchada "o'zak", "tub mohiyat", "negiz" ma'nolarini anglatadi. "Millat" tushunchasi esa din, mazhab, ummat; bir mazhabga mansub aholi; xalq ma'nolarini o'zida birlashtiradi. Berilgan tariflarga e'tibor qaratilsa, uning ahamiyati naqadar yuqori ekanligi va barcha xalqlar milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga bor kuch g'ayrati bilan intilishi bejizga emasligini anglash qiyin emas. Shuning uchun ham har bir davlat o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy urf-odati, an'anasi, marosimi, qolaversa tabiiy qadriyatlari, iqtisodiy qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlari, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlari, falsafiy qadriyatlari, badiiy qadriyatlari, diniy qadriyatlari va albatta umuminsoniy qadriyatlari asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Yuqoridaq berilgan fikrlar muhim ekanligini anglagan holda shuni aytish lozimki, milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda eng yaxshi vositalardan biri bu shubhasiz xalq og'zaki ijodidir. Chunki, aynan xalq og'zaki ijodidagi namunalar har bir xalq o'tmishidan so'zlaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini sifatida qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, alla, yor-yorlar, kelin salom kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Qadriyatlар deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlari - "milliylik" "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xattiharakatlarda ham ma'lum ijobjiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash

rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm -rusumlar, bayramu-sayillar atshkil eatdi. O'zbek milliy qadri-yatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarda, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, bir - biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonloma e'ozzlanib kelinadi. Milliy qadriyatlар o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy - madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir. Milliy qadriyatlarni tiklash - ularga hozirgi zamonga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekiston davlat musatqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik qadriyatlар xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi. Milliy qadriyatlarni yorqin ko'rinishlari sifatida: vatanga muhabbat, do'stlikka sadoqat, ishonch, oilaga vafo hamda mehr tuyg'ularini misol qilib keltirishimiz mumkin. Inson faqatgina dunyoviy bilimlarni o'zlashtirib, yoki bo'lmasa insonga xos bo'lgan mehr, sadoqat, ishonch, odob-axloq, hurmat, tinchlik kabi tushunchalar haqida bilimga ega bo'lishning o'zigina uning ma'nani yetuk bo'lib yetishishi uchun yetarli bo'lmaydi. Insonga uning irodasi qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, kasbga, atrofdagilarga mehnatga, ruhan va qalban mehrli va oqibatli bo'lish tuyg'ularini shakllantirish, yuragida ulug' maqsadlar tug'ilishiga va jamiyatda borayotgan hodisalarga o'z fikrini bildira olishiga erishishimiz lozim. Yoshlarda shu xususiyatlarni shakllantirishning turli usullari mavjud: ota- bobolarning pand-nasihatlarini tinglash va bundan o'zi uchun to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirish orqali, eng muhimi yoshlarga uzlusiz tarbiyani jonu-dildan berish orqali va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin. Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiatni, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishta yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummiliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, qomusimizning 18 -moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir»¹, - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatlari davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, butunbutun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiysiyo falokatlarga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butunbutun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan" Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor Millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqlol royasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda. Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136

millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urfodatlari, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. Turli millat vakillarining ijodiy tadbirdilari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomonidan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rni borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomonidan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi-O'zbekiston fuqarosi ekanligani namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi. Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobi ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bO'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni beziz aytmagan. Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtida o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi. E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhym ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqlol yurtimizdagи turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniyma'rifiy dasturlarni amalgalash uchun sharoit yuzaga keldi. O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliyl totuvlik va bag'rikevtlikni yanada mustaxdsamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir. Respublikada istiqomat qilib turgan 136 millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiyl uyimizdagи tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi hislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgaya harakatlarga sabab bo'lmoqda. Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli

dinlarga mansub qadriyatlarni asrabavaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'alarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Diniy bagrikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, birbirlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Xulosa. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib biz shunday xulosaga kelamizki, milliy va diniy qadriyatlarning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos. Biz o'sib kelayotgan har bir yosh avlodning ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirib, buni hayot tarziga chambarchas bog'lagan holda tarbiyani uzlusiz davom ettirishimiz kerak. Kelajagimiz yoshlar qo'lida ekanligini anglagan holda, farzandlarimiz tarbiyasiga diqqatli bo'lmosg'imir lozim. Milliy qadriyatlar bizning o'tmish tarzimiz va madaniyatimizni aks ettingani kabi, biz ularni keljakka yosh avlodlarimiz orqali yetkazishimiz darkor.

Foydalanimanadabiyotlar:

1. Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.
2. Abdullayev Q., Yusupov M., Rahmonbekova S. Oqish kitobi. 2-sinf o'quvchilari uchun darslik. - Toshkent, "Sharq", 2010. - 80 b.
3. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. - Toshkent, "O'qituvchi", 2010. -260 b.
4. Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni. T, Dizayn-Press 2011.327 b.
5. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM MUXITIDA TALABALARDA ILMYI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH TIZIMININI TAKOMILLASHTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(2), 136-139.
6. Usmanova, S. (2022). TALABALARDA ILMYI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK PEDAGOGIKADAN SAMARALI FOYDALANISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 121-123.
7. Usmanova, S. (2022). Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik aksiologiyani ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 2(10), 51-55
8. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA ILMYI PEDAGOGIK MUHITNING TALABALAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR.